

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.


**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar ulushi**

**Aholi jon
boshiga
ko'rsatilgan
bozor
xizmatlari
hajmi**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish
sur'atlari**

**Aholi jon
boshiga
ko'rsatilgan
xizmatlarning
o'sish
sur'atlari**



**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi**

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir..

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 404,8** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 148,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-noyabr

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------------------|
| Xizmatlar - jami | 9404,8 | 120,1 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 424,8 | 119,4 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1860,7 | 129,9 |
| Transport xizmatlari | 1525,5 | 122,4 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 1408,4 | 120,4 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 251,4 | 110,7 |
| Savdo xizmatlari | 3439,5 | 110,2 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 249,3 | 121,9 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar | 418,2 | 139,8 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 162,4 | 168,0 |
| Ijara xizmatlari | 236,9 | 124,3 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 250,1 | 122,0 |
| Shaxsiy xizmatlar | 258,6 | 115,3 |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 124,1 | 126,3 |
| Boshqa xizmatlar | 203,3 | 136,9 |

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **36,6** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**19,8** %), transport (**16,2** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**4,5** %) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,3 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **38,8 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,3 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash (**68,0 %**), ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**39,8 %**), moliyaviy xizmatlar (**29,9 %**), Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi (**26,3 %**), ijarava prokat xizmatlarida (**24,3 %**) hamda transport xizmatlar (**22,4 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi savdo xizmatlarda (**10,2 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida tal'im xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **133,2** %. me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **73,3** %.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-noyabr

64,7

35,3

2021- y. yanvar-noyabr

67,0

33,0

Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **33,0** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **35,3** % ni tashkil etgan.



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **36,6 %** ni tashkil etib, bu **3 439,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **2 816,3** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **38,8 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **83,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **11,9 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**4,4 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **82,7 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 860,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 401,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **19,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- noyabr oylarida ularning ulushi **19,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **458,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **29,9** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **126,1** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,3 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,5 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **95,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,6 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,4 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari





Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida ularning ulushi 94,2 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,0 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **418,2** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,4 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **139,8 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2020- y.
Yanvar-noyabr**

**2021- y.
Yanvar-noyabr**



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **53,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-
oktabr

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2021- y.
yanvar-
oktabr



2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,1** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida) | Hajmi, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|----------------------|----------|
| | | 2021- y. | 2020- y. |
| Surxondaryo viloyati | 9404,8 | 120,1 | 103,0 |
| Termiz sh | 2522,5 | 119,2 | 105,2 |
| Oltinsoy | 383,9 | 119,4 | 100,6 |
| Angor | 422,8 | 116,8 | 100,8 |
| Bandixon | 217,6 | 117,9 | 101,5 |
| Boysun | 302,9 | 121,0 | 101,1 |
| Muzrabot | 431,1 | 118,7 | 100,1 |
| Denov | 1173,6 | 123,9 | 102,3 |
| Jarqo'rg'on | 584,1 | 122,3 | 100,1 |
| Qumqo'rg'on | 587,7 | 119,9 | 100,2 |
| Qiziriq | 377,4 | 118,6 | 100,9 |
| Sariosiyo | 566,5 | 118,4 | 100,1 |
| Termiz | 418,2 | 121,9 | 100,7 |
| Uzun | 403,2 | 117,3 | 100,9 |
| Sherobod | 517,2 | 121,6 | 100,4 |
| Sho'rchi | 496,1 | 120,7 | 100,8 |

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-noyabr

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Termiz shahrida – **26,8 %** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **27,0 %**).



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,3 %** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **2,4 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

3 478,9
ming so'm

738,6
ming so'mga



117,6 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 478,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:
2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 740,3** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **100,7 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

17 194
birlik.



1 971
birlikka
o'sgan.

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

112,9 %



60,6 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **60,6 %**, sanoat **16,5 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,1 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,8 %** ga to'g'ri keldi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **60,9 %** ni, sanoat **16,1 %** ni, qurilish **9,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **13,1 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**47,3 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,0 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,9 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,9 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 47,3

Boshqa turdagi xizmatlar – 33,4

Yashash va ovqatlanish – 10,0

Tashish va saqlash – 4,9

Axborot va aloqa – 1,9

Sog'liqni saqlash – 2,5


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



66,5 %

2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **54,7 %** ga to'g'ri keldi.

1- dekabr holatiga

2021 - y.

2020 - y.

54,7 %

54,3 %

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.

Tel: (76) 225-65-91